



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




№11
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 310 sahifa,
4-noyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oilaning maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni	24
<i>Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga metodik tayyorlash texnologiyalari	27
<i>Abdubannoyeva Muxlisaxon Iqboljon qizi, Abdullayev Alibek Qodiraliyevich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlardan foydalanish zaruriyati	30
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Turdaliyeva Muslimaxon Jahongir qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida fortepiano chalishni o'rgatish metodikasi	34
<i>Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi</i>	
Maktabda fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv	38
<i>Alinazarova Mahfuza</i>	
Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasining hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqini	43
<i>Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li</i>	
Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar	48
<i>Choriyeva Gulbaxor Shotemirovna</i>	
Robototexnika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ta'limni tashkil etish	53
<i>Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich</i>	
Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha jahon tajribasi	58
<i>Ergasheva S. T.</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish	61
<i>Eshmamatova Dilnoza Jovli qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda tarbiyachi mahorati	64
<i>Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi</i>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish	68
<i>Hojikarimova Gulasal Tadjaliyevna</i>	
Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda elektron platformalar yaratish	71
<i>Jo'rayeva Matluba</i>	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va uning samaradorlik omillari	74
<i>Komilova Z. X.</i>	
O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati	80
<i>M. Yu. Mahkamova</i>	
Psixologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish masalalari	86
<i>Madazizova Difuza Raxmatullayevna</i>	
Integrating Listening and Speaking Skills in ESP (English for Specific Purposes) Classes	90
<i>Madina Tilavova</i>	
Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlar	94
<i>N. O. Saidova</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida radiologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning metodologik roli	99
<i>Nazarova Gulchexra Shuxratdjonovna</i>	
Ijodkorlik tushunchasining mohiyati va uning ta'limdagi roli	103
<i>Ochilova Dilbar Isroilovna</i>	
Alaliyani boshqa nutqiy nuqsonlar bilan farqli xarakteristikasi	108
<i>Oripova Zilola</i>	
Ingliz tilini o'qitishda suggestopediya metodini joriy etishning samaradorligi	113
<i>Pulatova Sitara Abdurazzoq qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv kompetentligi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari	118
<i>Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich</i>	
Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning yosh badmintonchilar texnik-taktik tayyorgarligiga ta'siri	122
<i>Qurbanova Ilmira Alisher qizi</i>	



Blended Learning	125
Quvandikova Xadicha	
Fizika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	129
Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li	
"Qurilish jarayonlari texnologiyasi" fanida loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasi va uni raqamli ta'limga moslashtirish	135
Raxmonova Nazokat Umaraliyevna	
Vitagen texnologiyalar asosida talabalar mediamentalitetini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) dasturlaridan foydalanishning tahliliy modeli	140
Rustamova Nodira Rustamovna	
Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari	145
Sitora Toshmatova	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriyati	149
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Musiqqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi	153
Toshpulatova Said Kuzibaevna	
Texnologiya fanini o'qitishda eng samarali metodlardan foydalanish	158
Turdiyeva Shahzoda Eshdavlat qizi	
Enhancing University Students' Self-Directed Learning Through Edtech Tools	161
Ulasheva Lobar	
Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish	164
Valiyeva Nargiza Athamboyevna	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari	169
Xakimova Sarvinov Sharifjon qizi	
Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim platformalari: samaradorlik tahlili va pedagogik yondashuvlar	173
Xanbabayev Xakimjon Ikramovich, Erkinov Jasurbek Hasanjon o'g'li	
Tasavvufdagi "muhosaba" va "tafakkur" amallarining o'z-o'zini refleksiya metodlari sifatida qo'llanilishi	176
Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich	
Milliy sport va ommaviy o'yinlarning badiiy-estetik ahamiyati	182
Yaxyayeva Sojida Abdurahimovna	
Ota-ona mehrining bola psixologiyasiga ta'siri	185
Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi	
Nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'llaniladigan innovatsion usullari samaradorligi	189
Ahmedova Nargiza Muzaffarovna	
Факторы, сдерживающие развитие науки в контексте требований к диссертационным работам	193
Зайналов Жахонгир Расулович, Нурмухамедов Аббос Мамадалиевич, Шадманов Камолиддин Кажакджанович, Самигова Нодира Хамидуллаевна	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	197
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	
Психологическая консультация: современная практика, задачи и перспективы развития	203
Раупова Шохида Ахроровна	
Подготовка будущих педагогов к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья: задачи и перспективы	207
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
Формирование иноязычной грамотности у курсантов военных вузов: социально-психологические факторы	211
Сулейманова Нилуфар Камиловна	
O'qituvchi shaxsiy kompetensiyasining mohiyati va pedagogik faoliyatdagi o'rni	214
Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi	
Bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari	218
Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi	
Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni rivojlantirish jarayonlari	221
Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna	
Ta'lim menejmenti tizimida o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish strategiyalari	224
Abduxalilova Iroda Nozimxonovna	

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalashda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ustuvor vazifalari	229
Abirova Umida Nazarovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida differensiyalashtirilgan dars mashg'ulotlarini tashkil etishga o'rgatish (kompetentligini shakllantirish/rivojlantirish) usullari.....	232
Adhamova Diyora Sanjar qizi	
Musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda sambochilarning energiya sarfi va tiklanish mexanizmlari tahliliy	239
Tangriyev Abdukarim Tovashevich	
Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati.....	244
Hafizov Shahriyor Shavkatovich	
Bo'lajak tarbiyachilarning transversal: tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyalari	248
Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi	
Axborotning gnoseologik mohiyati.....	256
Kamolova Munajatxon Jaloldinovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari	259
Mamatova Aziza Bo'riboyevna	
Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	262
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich	
Pedagogik oliy ta'limda talabalarining kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi.....	267
Maxkamova Dilafruz Aliyevna	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv	271
Normamatova Kamola Gulmamat qizi	
O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida).....	274
S. Sh. Azamatova	
Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari	277
Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi	
Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari.....	282
Xolova Mohigul Shavkatovna	
Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish.....	287
Xudoyberganov Atham	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish	291
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi	
Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление	295
Кадирова Наргиза Азаматовна	
Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка)	298
Мамырбаева Дина	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	304
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	

KOORDINATSION QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING YOSH BADMINTONCHILAR TEXNIK- TAKTIK TAYYORGARLIGIGA TA'SIRI

Qurbanova Ilmira Alisher qizi

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada yosh badmintonchilarda koordinatsion qobiliyatlarning rivojlanishi ularning texnik va taktik tayyorgarligiga ta'siri tahlil qilingan. Maxsus mashqlar majmuasi yordamida koordinatsion ko'nikmalarni shakllantirish, metodik yondashuvlarni amaliyotda qo'llash va ularning samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, koordinatsion qobiliyatlarning o'sishi sportchilarning tezkor qaror qabul qilish, to'g'ri zarba tanlash va samarali harakatlarni bajarishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: badminton, yosh sportchilar, koordinatsion qobiliyat, texnik tayyorgarlik, taktik yechim, metodika.

Abstract: The article analyzes the impact of developing coordination abilities in young badminton players on their technical and tactical training. The effectiveness of applying special exercises aimed at developing coordination skills and implementing methodological approaches in practice is substantiated. The research results show that the development of coordination abilities is an important factor for making quick decisions, selecting accurate shots, and performing effective movements.

Key words: badminton, young athletes, coordination abilities, technical training, tactical solutions, methodology.

Аннотация: В статье анализируется влияние развития координационных способностей у юных бадминтонистов на их техническую и тактическую подготовку. Обоснована эффективность применения специальных упражнений, направленных на формирование координационных навыков и внедрение методических подходов в практику. Результаты исследования показывают, что развитие координационных способностей является важным фактором для быстрого принятия решений, правильного выбора удара и выполнения эффективных игровых действий.

Ключевые слова: бадминтон, юные спортсмены, координационные способности, техническая подготовка, тактические решения, методика.

KIRISH

Bugungi kunda sportda yuqori natijalarga erishish uchun sportchilarning nafaqat umumiy jismoniy tayyorgarligi, balki koordinatsion qobiliyatlari ham hal qiluvchi omil sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, badminton kabi tezkor va murakkab texnik-taktik harakatlarni talab qiluvchi sport turlarida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Badmintonchining maydondagi tezligi, zarbalarni to'g'ri tanlashi, raqib harakatlariiga moslasha olishi va zarba berishda aniqligi – ularning barchasi koordinatsiya darajasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Yosh sportchilar texnik va taktik jihatdan shakllanish bosqichida bo'lganliklari sababli, ularda koordinatsion mashqlarni to'g'ri metodika asosida qo'llash kelgusidagi sport faoliyati uchun muhim poydevor yaratadi. Shu bois, ushbu tadqiqot yosh badmintonchilarda koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning texnik va taktik tayyorgarlikka ta'sirini ilmiy asosda o'rganishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda koordinatsion qobiliyatlar sportchi tayyorgarligining ajralmas qismi sifatida e'tirof etilgan. Bu borada olib borilgan ko'plab ilmiy izlanishlarning natijalari yosh sportchilarni tayyorlash jarayonida amaliy ahamiyat kasb etadi. Texnik tayyorgarlikka ta'siri bo'yicha germaniyalik olim H. Hirtz (2002) koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish badminton kabi tezkor sport turlarida texnik harakatlarni tezroq egal-



lash va xatoliklarni kamaytirishga yordam berishini qayd etgan.¹ Shuningdek, W. Starosta (2019) koordinatsion tayyorgarlik o'z vaqtida bajarilgan zarbalar aniqligini oshirishini va murakkab texnik kombinatsiyalarni samarali bajarish imkonini berishini ilmiy asoslagan.² Taktik tayyorgarlikka ta'siri borasida britaniyalik tadqiqotchi A. Abernethy (2020) badmintonchilarda koordinatsion qobiliyatlar qaror qabul qilish tezligi, raqib harakatini oldindan sezish va unga moslasha olish bilan chambarchas bog'liq ekanini aniqlagan.³ Shuningdek, amerikalik olim R. A. Schmidt va kanadalik T. Lee (2019) koordinatsiya rivojlanishi murakkab vaziyatlarda samarali qaror chiqarishga yordam berishini, bu esa taktik ustunlikni ta'minlashini ta'kidlagan.

Mahalliy olimlardan G'. Abduqodirov (2020) yosh sportchilarda koordinatsion mashqlarni texnik mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish ularning texnik barqarorligini mustahkamlashini va taktik qaror qabul qilish tezligini oshirishini tajribalar orqali isbotlab bergan.⁴ Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yosh davrda koordinatsiyani rivojlantirish nafaqat jismoniy ko'nikmalarni, balki texnik-taktik tayyorgarlikni ham sezilarli darajada takomillashtiradi. Shuningdek, bu jarayon sportchining musobaqalarda barqaror natijalar ko'rsatishi, raqib harakatlariga moslasha olishi va murakkab vaziyatlarda samarali qaror qabul qilishiga yordam beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sport nazariyasi va amaliyotida ko'plab mutaxassislar koordinatsion qobiliyatlarni sportchining texnik-taktik tayyorgarligi uchun zarur omil sifatida ta'riflaydi. Masalan, M. Meinel va G. Schnabel (2013) o'z tadqiqotlarida koordinatsion qobiliyatlarni "sportchi harakatlarini boshqarishning markaziy asosi" sifatida izohlagan. Sportchilar, ayniqsa badmintonchilar uchun, koordinatsion qobiliyatlar faqat jismoniy rivojlanish emas, balki texnik-taktik tayyorgarlikning poydevori hisoblanadi. Chunki badminton o'yinida har bir zarba, har bir qadam va har bir qaror soniyaning ulkan ahamiyatga ega bo'lgan qisqa bo'lagida qabul qilinadi.

Tadqiqot doirasida yosh badmintonchilar ikki guruhga ajratildi: tajriba guruhi va nazorat guruhi. Tajriba guruhida maxsus koordinatsion mashqlar majmuasi qo'llanildi (reaksiya tezligi mashqlari, muvozanatni saqlash mashqlari, fazoda orientatsiya mashqlari, ritmik zarba mashqlari). Nazorat guruhi esa oddiy umumjismoniy mashg'ulotlar asosida shug'ullandi. Nazorat guruhida bunday sezilarli o'sish kuzatilmadi. Bu esa maxsus koordinatsion mashqlar yosh badmintonchilarning texnik harakatlarini tezroq va aniqroq bajarishiga, shuningdek, taktik vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish tezligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

1-jadval: **Koordinatsion qobiliyatlarning texnik va taktik tayyorgarlikka ta'siri**

№	Koordinatsion qobiliyat	Texnik tayyorgarlikka ta'siri	Taktik tayyorgarlikka ta'siri
1	Reaksiya tezligi	Zarbalarini tez va aniq bajarishga yordam beradi.	Qaror qabul qilish tezligini oshiradi, raqib harakatiga moslashishni ta'minlaydi.
2	Muvozanat	Murakkab vaziyatlarda barqaror zarba berishni osonlashtiradi.	O'yin davomida optimal joylashuvni saqlashga yordam beradi.
3	Fazoda orientatsiya	Maydonda harakatlanish samaradorligini oshiradi.	Zarba berish uchun qulay nuqtani tez topish imkonini beradi.
4	Ritm va tempni boshqarish	Texnik barqarorlik va zarba aniqligini oshiradi.	Koordinatsion o'yin qurish va raqibni chalg'itishda muhim.
5	Harakatlarni uyg'unlashtirish	Murakkab texnik kombinatsiyalarni samarali bajarishga imkon beradi.	Turli zarbalarini ketma-ket uyg'unlashtirish orqali strategik ustunlik beradi.

Koordinatsion qobiliyatlarning texnik va taktik tayyorgarlikka ta'siri. Texnik tayyorgarlikka ta'siri bo'yicha zarbalar aniqligi va barqarorligi muhim ahamiyatga ega. Maxsus koordinatsion mashqlar (masalan, fazoda orientatsiya mashqlari yoki ritmik zarbalar mashqlari) badmintonchining raketkani boshqarish aniqligini oshiradi. Natijada zarbalar yo'nalishini o'zgartirishda xatolik kamayadi. Masalan, tajriba guruhida koordinatsion mashqlar qo'llanganda zarba aniqligi 15-18 % ga yaxshilanganini natijalar ko'rsatmoqda.

Muvozanatni boshqarish. Badmintonchining texnik mahorati ko'pincha noqulay vaziyatlarda – oldinga, orqaga yoki yon tomonlarga keskin sakrash paytida zarba berishda – yaqqol namoyon bo'ladi. Muvozanatni boshqarish qobiliyati rivojlangan sportchi bunday vaziyatlarda ham to'g'ri zarba bera oladi.

1 Hirtz H. Koordinative Fähigkeiten im Schulsport. Berlin: Volk und Wissen, 2002.

2 Starosta W. Koordinationsfähigkeit im Sport: Theorie und Praxis. Berlin: Sportverlag, 2019.

3 Abernethy B. The Biomechanics of Badminton Techniques. Journal of Sports Sciences, 2020, №38(5), 556–567

4 Abduqodirov, G'. (2020). Yosh sportchilarda koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning ilmiy asoslari. – Toshkent: O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti nashriyoti.

Ritm va tempni ushlash. Harakatlar ritmi va takroriyliigi texnik tayyorgarlikning muhim qismidir. Koordinatsion mashqlar yordamida yosh sportchilar zarbalarni ma'lum ritmda bajarishga o'rgatiladi, bu esa texnik barqarorlikni oshiradi.

Taktik tayyorgarlikka ta'siri bo'yicha. Qaror qabul qilish tezligi koordinatsion mashqlar yordamida oshadi, sportchining raqib zarbasiga moslashish qobiliyati kuchayadi. Shunday qilib, u maydonda tezroq va to'g'ri qaror qabul qiladi. Masalan, raqibning to'satdan past zarbasiga sportchi nafaqat tez yetib boradi, balki to'g'ri javob zarbasini ham tanlay oladi.

Maydon bo'ylab samarali joylashish. Fazoda orientatsiya mashqlari badmintonchining maydon bo'ylab joylashishini, zarba berishga qulay nuqtani tez tanlashini ta'minlaydi. Natijada o'yin davomida kuchni tejash va raqibni charchatish imkoniyati paydo bo'ladi.

Kombinatsion o'yin qurish. Koordinatsion mashqlar orqali sportchi turli zarbalarni ketma-ket uyg'unlashtirishni o'rganadi. Bu esa taktik jihatdan murakkab o'yin sxemalarini amalga oshirish imkonini beradi (masalan, yuqoridan pastga zarba, so'ng yon tomondan tezkor zarba berish).

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, koordinatsion qobiliyatlarning rivojlanishi zarba berishdagi aniqlikni oshirgan, maydonda harakatlanish samaradorligini yaxshilagan, raqibning tezkor zarbalariga moslasha olish qobiliyatini mustahkamlagan hamda musobaqa sharoitida taktik qaror qabul qilish tezligini kuchaytirgan. Demak, koordinatsion mashqlarni mashg'ulot dasturiga kiritish yosh badmintonchilarda nafaqat jismoniy, balki psixologik va intellektual tayyorgarlikni ham qo'llab-quvvatlaydi. Bu esa ularning texnik-taktik mahoratini yanada yuqori bosqichga ko'taradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, yosh badmintonchilarning texnik-taktik tayyorgarligida koordinatsion qobiliyatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Maxsus koordinatsion mashqlar asosida olib borilgan mashg'ulotlar texnik barqarorlikni oshiradi hamda taktik qaror qabul qilish tezligini kuchaytiradi. Har bir mashg'ulotda koordinatsion mashqlar uchun 15–20 daqiqa ajratish tavsiya etiladi. Mashqlarni yosh sportchilarning tayyorgarlik darajasiga mos holda bosqichma-bosqich murakkablashtirib borish lozim. O'quv dasturlariga yosh badmintonchilar koordinatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan kompleks mashqlarni majburiy tarzda kiritish zarur.

Kelgusida ushbu metodikaning samaradorligini yanada chuqurroq ilmiy-statistik tahlil qilish va uni turli yosh guruhlarida kesimida solishtirish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, koordinatsion qobiliyatlarning rivojlantirishi yosh badmintonchilarda yuqori sport natijalariga erishish uchun muhim omillardan biri hisoblanadi hamda texnik-taktik tayyorgarlikni yanada mukammallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kline, R. (2022). Remote Work and the Law: Challenges and Opportunities. New York: Springer.
2. Kuznetsov, A. G., & Matveev, L. V. (2018). Teoriya i metodika fizicheskoy kultury. Moskva: Akademiya.
3. Abduqodirov, G'. (2020). Yosh sportchilarda koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning ilmiy asoslari. Toshkent: O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti nashriyoti.
4. Hirtz, P. (2002). Koordinative Fähigkeiten im Schulsport. Schorndorf: Hofmann Verlag.
5. Bomp, T. (2009). Periodization: Theory and Methodology of Training. Human Kinetics.
6. Xasonova, Sh. R. (2023). Oliy ta'lim muassasalari talaba-qizlarining sport o'yinlari (gandbol, badminton) yordamida koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi. Scientific Journal Impact Factor, 4(3), 112–118.
7. Xasanov, A. T., & Tojiboyeva, G. X. (2023). Koordinatsion qobiliyat va harakat aniqligini shakllantirishda muvozanat saqlash barqarorligining samaradorligi. O'zbekiston Fanlar Jurnal, 2(5), 57–63.
8. O'lmasov, M. M., & Madatov, S. (2022). Badmintonchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi xususiyatlari. Science and Technology Journal of Uzbekistan, 1(6), 85–92.
9. Idrisov, M. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy va harakatli o'yinlar orqali koordinatsion qobiliyatni takomillashtirish. ScienceWeb.uz Elektron Jurnal, 4(2), 33–39.
10. Soliyeva, D. A. (2020). Vaziyatli sport turlarida koordinatsion qobiliyat va "o'naqay-chapaqay" harakatlar asimmetriya ko'rsatkichlarini aniqlash. ScienceWeb.uz Elektron Jurnal, 3(1), 40–47.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.